



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**  
*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*  
*2025-yil, 12-13-noyabr*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE  
PHILOLOGY AND TRANSLATION  
STUDIES”**  
*international scientific and practical conference*  
*November 12-13, 2025*



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA  
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami*

*2025-yil, 12-13-noyabr*

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

*Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled*

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY  
AND TRANSLATION STUDIES”**

*November 12-13, 2025*

Tashkent – 2025

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat SIROJIDDINOV**  
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

**Tahrir hay’ati:**

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

*Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.*

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**UO‘K 845.711.05**

**KBK 133.585.3** Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

**Editor-in-Chief:**

**Shuhrat SIROJIDDINOV**

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

**Editorial Board:**

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

*The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.*

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

## O‘ZBEK QISSACHILIGIDA XARAKTER VA KOLLIZIYA: QO‘CHQOR NORQOBIL IJODI MISOLIDA XX–XXI ASR BADIY TALQINLARINING EVOLYUTSIYASI

*Axror Qodirov,  
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o‘zbek qissachiligida yuz bergan poetik yangilanishlar, xususan, inson xarakterining badiiy talqini va konfliktning (kolliziya) markazlashuvi tahlil qilinadi. An’anaviy mafkuraviy cheklovlar bartaraf etilishi bilan qissada psixologik qatlam chuqurlashgani, “ichki kurash” estetikasining ustuvor yo‘nalishga aylangani ko‘rsatiladi. Umarali Normatov, O‘.Nosirov, Sh.Rizayev, S.Umirov qarashlari asosida janrning mavzu-uslub rang-barangligi (tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, zamonaviy, romantik, realistik va modernistik yo‘nalishlar) konseptual izohlanadi. Qo‘chqor Norqobilning “Daryo ortidagi yig‘i”, “Kulib tur, azizim”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola”, shuningdek “Quyoshni kim uyg‘otadi?”, “Osmon ostidagi sir” kabi asarlari matn tahlili markaziga qo‘yilib, afg‘on urushi tajribasi, Surxon koloritining poetik funksiyasi, realizm va irrealizm omuxtaligi, muhabbatning hayotbaxsh kuchi orqali qahramonning ruhiy iztiroblari yoritiladi. Tadqiqot badiiy xarakterni “o‘zak (fitrat) + ijtimoiy munosabatlar” majmuasi sifatida sharhlab, konfliktning tashqi to‘qnashuvdan ko‘ra “tuig‘ular kolliziyasi”ga siljishini empiric misollar bilan asoslaydi. Natijada qissachilikda yangi qahramon tipologiyasi, muallif “meni”ning kuchayishi va psixologik konfliktning kompozitsion tayanchga aylanishi maqolaning asosiy xulosalari sifatida ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** *o‘zbek qissachiligi; Qo‘chqor Norqobil; badiiy xarakter; kolliziya; psixologik konflikt; afg‘on urushi mavzusi; realizm va irrealizm sintezi; Surxon kolorit; muallif “meni”; poetika; ideologik tazyiqdan xalos bo‘lish; obraz tipologiyasi; syujet-kompozitsiya; ichki monolog; zamonaviy nasr.*

**Abstract.** The article analyzes the poetic innovations that took place in Uzbek novella writing from the late 20th to the early 21st century, focusing particularly on the artistic interpretation of human character and the centralization of conflict (collision). It demonstrates that with the removal of traditional ideological constraints, the psychological layer of the novella deepened, and the aesthetics of “inner struggle” became a dominant tendency. Drawing on the views of Umarali Normatov, O. Nosirov, Sh. Rizayev, and S. Umirov, the study conceptually interprets the thematic and stylistic diversity of the genre—historical, socio-political, contemporary, romantic, realistic, and modernist directions. The analysis centers on Qo‘chqor Norqobil’s works such as “Daryo ortidagi yig‘i” (The Cry Beyond the River), “Kulib tur, azizim” (Keep Smiling, My Dear), “O‘n sakkizga kirmagan men bor” (I Am Not Yet Eighteen), “Qordagi lola” (The Tulip in the Snow), as well as “Quyoshni kim uyg‘otadi?” (Who Awakens the Sun?) and “Osmon ostidagi sir” (The Secret Beneath the Sky). Through these texts, the article explores the experience of the Afghan war, the poetic function of the Surkhan regional color, the interweaving of realism and irrealism, and the life-giving power of love as means of revealing the hero’s spiritual anguish. The research interprets artistic character as a synthesis of “core (nature) + social relations” and substantiates, through empirical examples, the shift of conflict from external confrontation to an “emotional collision.” As a result, the emergence of a new typology of heroes, the strengthening of the author’s “I,” and the transformation of psychological conflict into the compositional foundation of the novella are emphasized as the main conclusions of the article.

**Keywords:** *Uzbek novella; Qo‘chqor Norqobil; artistic character; collision; psychological conflict; Afghan war theme; synthesis of realism and irrealism; Surkhan color; author’s “I”; poetics; liberation from ideological pressure; typology of characters; plot-composition; inner monologue; contemporary prose.*

Badiiy adabiyotdagi turfa xil o‘zgarishlar, talqinlar inson xarakterini, uning ruhiy-ma’naviy olamini talqin etishga jiddiy e’tibor qaratayotganini alohida qayd qilib o‘tish lozimdir. O‘zbek adabiyoti XX asrda qator yangilanishlarni boshdan kechirdi. Yozuvchilarimiz mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirish bilan birga, jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o‘z ijodlariga singdira boshladilar.

XX asr davomida qissa janrining shakli, ifoda usullari juda ko‘p o‘zgarishlarga duch kelsa-da, inson talqini, uning badiiy xarakterlarining talqini uzoq vaqt o‘zgarishsiz qoldi. Faqat, asr so‘ngiga kelibgina, ijodkorlarimiz insonni anglash, uni bor-bo‘yicha tasvirlash borasida mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo‘ldi. Badiiy adabiyotning turfa xil qarashlari, talqinlari qissachilik

taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni ham yuzaga chiqara boshlaganligi e’tirof etilmoqda. Shu jihatdan qissachilikdagi jiddiy badiiy talqinlar, inson tafakkuridagi evrilishlarni, uning botiniy olamidagi ziddiyatlarni juda teran badiiy aks ettirish yo‘lidan borayotganligini ham alohida qayd etmoq zarurdir. O‘zbek qissachiligidagi adabiy qahramonlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati ham o‘zgardi. Bunday tasvir xususiyati janr tarkibidagi o‘zgarishlarni bugungi badiiy qonuniyatlar asosida talqin etish va tahlil etish holati mavjud. Adabiyotshunos Umarali Normatov o‘zbek qissachiligi haqida so‘z yuritib, undagi badiiy o‘zgarishlarni, poetik talqin taraqqiyotini o‘ziga xos qarashlar bilan izohlashga, asoslashga harakat qilib shunday yozadi: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda, birinchi galda undagi mavzu, muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi. Ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy - siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqi mavzulardagi ham an’anaviy, romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik sarguzasht-detektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin” [Норматов, 1997: 157].

O‘zbek qissachiligida yangi nomlar, yangi qahramonlar adabiy hayotimizga yangi mazmun bag‘ishladi. Ayni paytda o‘zbek qissachiligida yangi qahramonlar safi kengayib bormoqda. Ular bizning ko‘nglimizga yaqin va qadrdon zamondoshlarimiz ekanligi hech kimga sir emas, chunki ular kitobxonlar qalbidan allaqachon joy olgan. Bbadiiy adabiyot xarakterlar yaratish san’ati ekan, uning turfa xil talqinlarini adib qissalarida kuzatish mumkin. Qayd qilinganidek, “Qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmyixarakter deb yuritiladi” [Boboyev, 2002: 52].

Qo‘chqor Norqobil keyingi yillar o‘zbek nasrida faol ijod qilib kelayotgan yozuvchilardan biridir. Uning “Bosinqirash”, “Arosat”, “Xun”, “Quyoshni kim uyg‘otadi?”, “Osmon ostidagi sir”, “Yangi yil kechasida”, “Bu yerlarda hayot boshqacha”, “Ko‘zlaringni ko‘rgani keldim”, “Nozi...Nozigul”, “Yer hali ham dumaloq”, “Bizni oqibat qutqaradi” hikoyalari; “Daryo ortidagi yig‘i”, “Kulib tur, azizim”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola” qissalari fikrimizning dalilidir. Qo‘chqor Norqobil o‘z asarlarida urush dahshatlari, turli fojialar, inson yuragining og‘riqlari bilan bir qatorda, hayotda eng toza borliq – Muhabbat bor, demoqchi. Urush ichidagi muhabbat asar qahramoniga eng og‘ir damlarda kuch-quvvat, ishonch baxshida etishini yoritib berishga intilayotgan ijodkordir. Asrlar davomida urush mavzusidagi asarlarda g‘oliblar va mag‘lublar obrazi yetakchilik qilgan bo‘lsa, adib ijodida esa inson tushunchasiga, uning hayotdagi o‘rniga e’tibor qaratiladi.

Tasvirdagi bunday talqinlar yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘lib, asarlarida hayotiy voqealarni boricha yoritishga intiladi. Bu haqda yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodkorning “Quyoshni kim uyg‘otadi?” qissa va hikoyalar to‘plamiga yozgan “Iztirob” deya nomlangan so‘zboshisida shunday fikrlarni bayon etadi: “Qo‘chqorning shoirona nasrida reallik bilan noreallik ko‘pincha omuxta bo‘lib ketadiki, bunga erishish juda qiyin-e: birinchidan, bunday irrealistik nasr tajribalari bizda yo‘q. Ikkinchidan, bu yo‘l man-man degan adibni ham uloqtirib-o‘tlatib ketadi, demak, asar maqsadidan kelib chiqadigan chegaragina uni tutib turishi mumkin. Endi, asarning maqsadi – urush fojiasini – urushning inson ruhidagi o‘zgartirishlarini, ruhdagi iztirobli to‘lg‘oqlarni tasvirlash va oqibat uning fojia natijasini ko‘rsatishdan iborat bo‘lsa, hali yosh, dunyoviy adabiyotning bu boradagi tajribalari bilan endi tanisha boshlagan va shu asno o‘zini kashf etayotgan yozuvchiga naqadar og‘irlik tushadi” [Норқобил, 2007: 3-4].

Qo‘chqor Norqobil 1968-yilning 5-mart kunida Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani Mo‘minko‘l qishlog‘ida tavallud topgan. O‘rta maktabni tugatib, 1986–1988-yillarda afg‘on urushida qatnashdi. So‘ng Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirdi. 1992-yilda universitetni tugatgach, gazeta-jurnallarda ishladi, muxbirlik qildi. Uning ijodi asosan 80-yillar oxiri – 90-yillar boshida boshlandi. «Bosinqirash», “Arosat”, “Xun” hikoyalari hamda “Daryo ortidagi yig‘i” qissasi shu davr mahsuli sifatida xarakterlidir. Uning ijodida “Daryo ortidagi yig‘i” (1990) qissasi, ayniqsa, xarakterli bo‘lib, unda afg‘on yurtida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan hayotiy voqealar

mahorat bilan ifoda etilgan. Shu tufayli mazkur qissa yoshlar tashkilotining Usmon Nosir nomidagi mukofotiga sazovor bo‘lgan. Uning “Qorong‘u uy”, “Kulib tur, azizim”, “Xayr, beshinchi mart” singari hujjatli qissa va romanlarida ham urush va inson, hayot va o‘lim, zulmat va ro‘shnolik, shuningdek, insonni tutib turgan muhabbat mavzusi o‘zaro uyg‘un holda tadqiq etiladi.

Qo‘chqor Norqobil shoir sifatida hozircha faqat “Xosiyatli daryo” (1992), “Kaftimdagi qizg‘aldoq” (1993) to‘plamlarini nashr ettirgan bo‘lsa ham, mazkur to‘plamlarga kirgan she‘rlarning o‘ziyoq uning iqtidorli shoir ekanligiga kafolat beradi. Qo‘chqor Norqobilning keyingi yillarda “O‘n sakkizga kirgan men bor”, “Kulib tur, azizim!”, “Osmon ostidagi sir”(2015) kabi nasriy kitoblari chop etildi. Jangchi adib mazkur asarlarida inson qalbining og‘ir dardlarini urush manzaralari orqali badiiy talqin etadi. U hayot bilan o‘lim, yovuzlik bilan ezgulik ro‘baro‘ kelgan pallada o‘z taqdirini garovga qo‘ygan. Uning she‘rlari, hikoyalari, qissalari shu haqda. Mana shunday xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

2001-yilda unga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni berildi. Keyinchalik Qo‘chqor Norqobil «O‘zbekiston ovozi» gazetasida siyosat va xalqaro hayot bo‘limiga boshchilik qildi. Ayni paytda «Inson va qonun» gazetasining Bosh muharriri vazifasida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Qo‘chqor Norqobil tarjimonlik sohasida ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, S.Yesenin, Ye.Yevtushenko kabi shoirlarning nasriy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Qo‘chqor Norqobil – hozirgi o‘zbek adabiyotida hikoyanavis, qissanavis, jurnalist hamda dramaturg sifatida o‘z o‘rni va mavqeyiga ega ijodkorlardan biridir.

Badiiy ijodda, xususan, o‘zbek qissachiligida ham yozuvchining o‘ziga xos uslubiga ko‘p narsa bog‘liq bo‘ladi. Adabiyotshunos O‘.Nosirovning fikricha: “Yozuvchining hayotni obrazli o‘zlashtirishi, uning original badiiy kartinasini yaratishda talanti, ijodiy mustaqilligi, o‘ziga xosligi, hayotiy fakt va hodisalarni, insoniy munosabatlarni yangicha talqin qilishi, “yangi so‘z” aytish mahorati, adabiyotda o‘z ovozi, o‘z uslubini yaratishi muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy ijod har bir avtordan ijodiy mustaqillikni, tasvir predmetiga subyektiv munosabatni taqozo etadi” [Носиров, 1981: 73]. Adabiyotshunos Shuhrat Rizayev adibning “Osmon ostidagi sir” deb nomlangan hikoyalar to‘plamiga yozgan “Xotira va muhabbat qurshovida” sarlavhali muqaddimasida quyidagi fikrlarni alohida qayd etib o‘tadi: “...Qo‘chqorning asarlari boshqalarnikidan qaysi jihatlari bilan farqlanadi desa, kamina, avvalo, uning an’anaviy, sof realistik tafsiliy yo‘sinda yozishi hamda bitiklarida ikki jihat: afg‘on urushi mavzusi, motiv ham ohanglari va Surxon koloriti bo‘rtib ko‘rinishini ayirib ko‘rsatgan bo‘lar edim” [Норқобил, 2015: 5]. Yozuvchi badiiy asarlari va uning uslubi haqidagi bu qarashlar zahirida o‘ziga xos asos hamda tushunchalar mavjud. Adib hayotni anglash, murakkab qirralarini talqin etish jarayonida o‘z uslubini namoyon qilgan.

Adib yaratgan asar qahramonlari ham har qanday sun‘iylikdan yiroq, turli sinovlarga duch kelsa-da, hayotga bo‘lgan muhabbatidan voz kechmaydi. Badiiy asar qahramoni qay jihatlarga ega bo‘lishi kerakligi xususida Qo‘chqor Norqobil “Ko‘ngil daftari”dagi qaydlarida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi:

“Badiiy asarda yozuvchi o‘ylab topgan, kashf qilgan qahramon emas, balki o‘zini-o‘zi kashf qilgan, o‘z ortidan yozuvchini ham ergashtirib ketgan qahramonlar hech qachon o‘lmaydilar va shular tufayli badiiy asarlar abadiylik shohsupasiga chiqadi. O‘ylangan syujet, chegaralangan kompozitsiya, eng yomoni, yozuvchining chizig‘idan chiqolmagan qo‘g‘irchoq obrazlar asarning umrini yozuvchi umridan ham qisqa qilib qo‘yadi. Yaxshi asarlar adabiyot ham, adib ham hech qachon o‘lmasligini isbotlaydi” [ziyouz.com].

Adibning ijodiy mahorati asardan asarga o‘sib borayotganligini uning ijodini kuzatib borayotganligini adabiyotshunoslar asosli tarzda e’tirof etmoqdalar. Xususan, Saydi Umirov

“Voqealarning sirli tasviri” maqolasida: “Qo‘chqor Norqobil inson ruhiyati va tabiat manzaralarini bir-biriga vobasta, aloqador chizishda, portret, peyzaj, nutq detallaridan xarakter yaratishda, til, so‘z imkoniyatlaridan foydalanishda ko‘p izlanayotgani, ancha tajriba orttirgani ko‘rinib turibdi” [Umirov, 2016], – deb yozadi. Qayd qilinganidek, adib qissalarida inson hayotini, uning ruhiyatini badiiy talqin etishda turli tasvir usullaridan mahorat bilan foydalandi. Inson fojialariga nafaqat shaxsning o‘zi, balki hayotiy ziddiyatlar, ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklar ham asos bo‘lishi mumkin. Bu holatlarni yozuvchi turfa xil ohanglarda, badiiy tasvir vositalaridan, kompozitsion birliklardan unumli foydalanish natijasida yuzaga chiqaradi. “Hayot haqiqatidan ma‘lumki, vijdoni uyg‘oq, qalbi pok, diyonatli shaxslarning foniy dunyoda yashashi qiyin kechadi. Chunki ular har bir adolatsizlikka, odamlarning insoniylikka zid xatti-harakatlariga befarq qaray olmaydi. Ularga nisbatan o‘z e‘tirozini bildiradi. Bunday shaxslarning aksariyati ijodkor bo‘ladi. Shunday haqiqiy ijodkor xalqning vijdoni sanaladi” [Каримов, 2010: 243].

Badiiy asar borki, xarakter, obraz (timsol), personaj bor. Kichkinagina hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she‘rda xarakter kayfiyati, munosabati mujassam. Qo‘chqor Norqobilning afg‘on urushi xotiralariga bag‘ishlangan qissalarining barchasida muallifning “men”ni kuzatish mumkin. Yozuvchi “Daryo ortidagi yig‘i”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor” qissalarida askar yigit, “Kulib tur, azizim” qissasida shoir, “Qordagi lola” qissasida Tohir – jurnalist obrazi vositasida xarakter darajasiga ko‘tariladi va turli ijtimoiy ziddiyatlar zamirida asar qahramoni xarakterining ma‘lum bir qirralari namoyon etiladi. “Inson o‘sadi, o‘zgaradi, shakllanadi, ruhanma‘nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o‘zgarib, ikkinchi “men” kasb etmaydi, o‘zligini yo‘qotmaydi, ya‘ni ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro‘y beradi. Aniqroq aytsak, fitrat mavjudki, inson o‘zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi. Demak, betakror, muqim o‘zak ijtimoiy munosabatlarni singdirib boradi. Adabiy xarakter deganda o‘zak (fitrat, tiynat) va ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi tushuniladi” [Пасулов].

Badiiy asar tarkibidagi xarakterlar umumlashmalik xususiyatiga ega o‘lib, yozuvchi ularning fojiasini muhit orqali yoritadi. “Xarakter (yunoncha character – xususiyat, belgi) – ma‘lum ijtimoiy faoliyat tipi. Xarakter L. I. Timofeyev aytganidek, obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o‘z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo‘ladigan insonning aniq tasviri.” [Бобоев, 2002: 52-53]. Yozuvchi asarlarida betakror badiiy xarakterlar talqini o‘z ifodasini topgan. Bu esa Qo‘chqor Norqobilov asarlaridagi shaxs fojiasining talqini bejizga yuzaga chiqmaganligidan dalolat beradi. “Badiiy asarda ozmi-ko‘pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter (obraz) – insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma‘lum toifasiga xos xususiyatlarni ma‘lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko‘rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir. Xarakterlar muayyan psixologik sharoitda harakat etish natijasida namoyon bo‘ladilar va shakllanadilar” [Sulton, 2005: 103-104].

Darhaqiqat, badiiy xarakterning tulfa xil talqinlari asosida, uning shakllanishi voqealar zamirida nonoyon bo‘ladi. Adibning “Kulib tur, Azizim” qissasida ham kuzatish mumkin. Asar qahramonining turfa xil qarashlari, uning ma‘naviy tushkun holatining sabablariga e‘tibor qaratiladi. Bu o‘rinda, uning turf axil, o‘y-mulohazalari zamiridagi tushunchalar talqiniga e‘tibor qaratiladi. Qissada asar qahramonining kasalxonadagi hayoti, uning botinidagi ziddiyatlari kuzatish mumkin: “Shoir deraza qanotini ochib qo‘ydi. Erta bahor hidi, engil nasimlar ufurib kirdi xonaga. Ochiq derazadan uzoqlashayotib bog‘ adog‘idagi temir eshikka yana bir razm soldi... To‘rt kundirki,

xotinini shu eshikdan kirib kelishini kutib o‘sha yoqqa qaraydi” [Норқобил, 2007: 9]. Shoirning kasalxonadagi hayoti, uning orzularini chil-parchin qilib yuboradi.

Badiiy qonuniyatlardan biri, asar syujetidagi badiiy to‘qima asosida yaratilgan xarakterlar tasviridagi talqinlarda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, bunday tasvirlar kitobxon qalbini larzaga soladi. “Badiiy asardagi personaj xarakterining shakllanishida tipik sharoitning roli katta. Tipik sharoit esa, u yashagan davr, muhit bilan belgilanadi. Qahramon yashagan davr, muhit muallif tomonidan chizib berilgan shart-sharoit tasviri, tabiat manzarasi, muallif hikoyasi va xarakteristikasi, qahramonning muhitga bo‘lgan munosabati, simpatiya va antipatiyasi, kishilar bilan aloqasini ko‘rsatish asosida ochib boriladi” [Солиев, 2015: 110].

Ma’lumki, rivojlanish qarama-qarshiliklarning kurashi oqibatidir. Ijtimoiy taraqqiyotning xuddi shu qonuniga mos holda adabiyotda ham hayot harakatda ko‘rsatiladi. Konflikt (lotincha – conflictus so‘zidan olingan bo‘lib, ixtilof, to‘qnashuv degan ma’noni anglatadi) – badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi yuzma-yuz kurash yoki qahramonning o‘z atrofini qurshab olgan muhiti, o‘z-o‘zi bilan ruhiy to‘qnashuvi, olishuvidir. Badiiy konflikt asardagi voqealar rivojiga quvvat berib turuvchi muhim komponent bo‘lib, har bir davr, har bir san’at turi va janr imkoniyatiga qarab turli darajada namoyon bo‘ladi. Konflikt hal etilishi natijasida yana avvalgi muvozanatning tiklanishiga yo‘l ochiladi yoki taqdirlar bir holatdan ikkinchi holatga o‘tadi. Konflikt vositasida siljishlar tug‘dirgan inson dramasi ildizlari ochiladi, hayotiy jarayonlar ichiga kirib boriladi. Jamiyat va inson hayotidagi barcha ziddiyatlar ortida turmushning ijtimoiy muammolari yotadi. Demak, har qanday konflikt u yoki bu darajada ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Asar boshida konfliktni yuzaga keltirib chiqargan va namoyish etgan motivning mazmuni voqealar dinamikasida, uning yechilishida to‘la ayon bo‘ladi. Badiiy asar syujeti voqealardan, voqealar esa personajlarning xatti-harakatlari, o‘zaro munosabatlari, ziddiyatlardan tarkib topgani bois ham uni hayot ziddiyatlarini umumlashtiruvchi voqealar sistemasi sifatida ta’riflanadi. Ijodkor badiiy syujet orqali muayyan davrning ijtimoiy konfliktlarini ifodalaydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi, qahramonlarning xarakterini ochadi, estetik idealini olg‘a suradi.

Badiiylikning asosida hayot ziddiyatlari yotar ekan, uning talqinida shaxslararo konflikt bilan uzviy birlikda inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar ham o‘z ifodasini topadi. “Konflikt butun asar syujeti va mazmunining yo‘nalishini ta’min etadi. Konfliktsiz syujet “yasash” mumkin emas. Chunki syujet o‘zining chuqur mohiyati jihatidan harakat qilayotgan konfliktidir” [Солиев, 2015: 110]. Syujetda ijtimoiy ziddiyat rivojlanishda aks ettirilishi, uning qanday hal bo‘lishi va oqibatlari ko‘rsatilishi juda katta ahamiyatga egadir. Chunki shu yo‘l bilan ijtimoiy taraqqiyotning tamoyillari va qonuniyatlari ochib beriladi.

Qo‘chqor Norqobil qissalarida, asosan, psixologik konflikt turini kuzatish mumkin. Konfliktni psixologik, ya’ni ichki kolliziya shaklidagi asarlardagi kechinmalarning ijtimoiy, shaxsiy-intim konfliktlardan farqi nimada? “Daryo ortidagi yig‘i”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Qordagi lola” kabi asarlardagi kolliziyalarda qahramonlar – muxoliflarning maqsad yo‘lidagi kurashidan tug‘iluvchi hayotiy muammolar emas, balki og‘ir hayotiy sharoit va hodisalarning ta’siri, aks-sadosi ustundir. Ularda ba’zan uchrab turadigan xarakterlar to‘qnashuvi tashqi hodisalar ta’sirida yuz berayotgan ichki kurashlar zahiridagi o‘tkinchi holat sifatida ko‘rinadi, ya’ni hal qiluvchi, yangidan-yangi to‘qnashuvlar tug‘dirmaydi. “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”da “badiiy konflikt”ga shunday ta’rif beriladi: “Kolliziya – to‘qnashuv, qarama-qarshilik so‘zidan olinib, badiiy asarda xarakterlarning o‘zaro kurashi, sharoit va xarakterlar o‘rtasidagi to‘qnashuv deb baholanadi” [Хотамов, 1983: 157]. Ushbu ta’rif ziddiyatning tuyg‘ular kolliziyasi ma’nosini u qadar to‘liq ifodalaymaydi. Bunga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, “kechinmalar kolliziyasi” – asar qahramonlari ruhiy olamini namoyon etuvchi, ular ruhiyatida kechayotgan

o‘zgarishlar, bo‘hronlar, to‘qnashuvlar tabiatini ifodalovchi tuyg‘ular kurashidir. Demak, kolliziya – bu his-tuyg‘ular ziddiyati, kurashi demakdir. Ko‘rinadiki, konfliktning botiniy – kolliziya shaklidan foydalanish adabiyotimizning barcha turlari va janrlarida – epos, romanlarda, dramaturgiyada bo‘lgani kabi qissachilikda ham samarali kechmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 103-104-b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., 2002. 52-bet.
3. Umirov S. Voqealarning sirli tasviri//www.ziyouz.com. 2016-yil 14-yanvar.
